

TABIIY GEGORAFIK MUHITNING KISHILAR SALOMATLIGIGA TA'SIRI.



L.M.Saydaliyeva

I bosqich tayanch doktorant(PhD)

FarDu

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tabiiy sharoitning kishilar salomatligiga ta'siri va ayniqsa iqlimiy omillarning ta'siri masalalari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar. *Iqlim isishi, iqlimiy omil, magnit bo'ronlari, tabiiy geografik muhit.*

ВЛИЯНИЕ ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ СРЕДЫ НА ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА.

Аннотация. *В данной статье рассматривается влияние природных условий на здоровье людей, и особенно влияние климатических факторов.*

Ключевые слова. *Потепление климата, климатический фактор, магнитные бури, природно-географическая среда.*

INFLUENCE OF NATURAL GEOGRAPHIC ENVIRONMENT ON HUMAN HEALTH.

Annotation. *This article examines the impact of natural conditions on people's health, and especially the impact of climatic factors.*

Keywords. *Climate warming, climatic factor, magnetic storms, natural geographic environment.*

Kirish. Tabiiy omillar deganimizda biz tabiiy landshaft muhitini hosil qiluvchi komponentlar; tog' jinslari , relef , iqlim , suvlar, tuproq , o'simlik va hayvonot dunyosining yaxlitligi va mutanosibligini, ular o'rtasidagi modda va energiya oqimi bilan bog'liq dinamik jarayonlarni tushunamiz . Bunday muhit ko'pincha insonlar yashashi uchun optimal sharoitlarni keltirib chiqaradi. Lekin tabiiy omillar ichida uning muvozanatini insonlar tasirida buzilish holati yani kishilar salomatligiga xavf tug'diruvchi xolatlarni yani havo va suv muhitining ifloslanishi, cho'llashish, tuproq unumdorligining pasayib ketishi o'simlik va hayvon turlarining nobud bo'lishi tabiiy ofatlarning tez-tez sodir bo'lib turishini nazarda tutamiz. Tabiat inson aralashuvisiz o'zini tiklay oladi, lekin inson xo'jalik faoliyatining tabiiy muhitga ta'siri uning salbiy oqibatlariga ko'nika olish imkoniyatidan ko'ra kuchliroqdir. Shunga ko'ra tabiiy omillarni kishilar salomatligi nuqtai nazardan ekologik omil sifatida e'tirof etilib, unga kishilarning turmush tarzi,

mehnat va yashash muhiti, ovqatlanish rejimi, kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham kiritiladi. Lekin tabiiy omillar inson hayoti davomida unga bo'lgan munosabatlardan kelib chiqib, aks ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tibbiyot nuqtai-nazardan qaralganda kishilar salomatligiga ta'sir etuvchi eng muhim tabiiy (ekologik) ijtimoiy-iqtisodiy omillarni ko'p jihatiga bog'liqdir.

Insonlar turli tabiiy-iqlimiy sharoitlarda uzoq vaqtlardan buyon yashab, faoliyat yuritib kelmoqdalar. Bugungi kunda olimlarimizning e'tirof etishiga ko'ra 85% ga yaqin kasalliklar tabiiy muhitning salbiy o'zgarishlari bilan bevosita bog'liqdir. Shuning bilan birga global iqlim isishi insonlar sog'ligi uchun noqulay bo'lgan anomal o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. O'tgan 2020-yilning noyabr oyi dunyo miqiyosida so'ngi 50 yilliklarning eng issiq oyi deb e'tirof etildi. Respublikamizda esa bu vaqt davomida yog'ingarchilik miqdori ko'payib, harakatning me'yordan pastligi bilan ajralib turdi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Kishilar salomatligiga ta'sir etuvchi tabiiy omillar ichida iqlimning ahamiyati kattadir. A.Gumboldt (1959) iqlimning kishilar salomatligiga ta'siri haqida fikr yuritib unga atmosferaning tarkibi, ifloslanganlik darajasini e'tirof etadi.

L.C.Berd (1922) iqlimiy omil deganda meteorologik jarayonlarning o'rtacha holatini optimal deb hisoblab insonlar o'simlik va hayvonot dunyosiga ijobiy ta'sir etadi deb fikr bildiradi.

Darhaqiqat, tabiiy omillar ichida kishilar salomatligi ko'p jihatdan iqlimga bog'liqdir. Iqlimning tebranishi kishilar kayfiyatida aks etadi. Aslida kishilarda yillik fasliy o'zgarishlarga moslashuv shakllangan bo'ladi. Fasllar almashinishiga ruhiy moslashish, kiyinish, ovqatlanish rejimini o'zgartirish, ish sharoitlarini yaratish bilan amalga oshiriladi. Optimal iqlimiy sharoit kamdan kam hollarda yuzaga keladi. Dunyoning shimoliy mintaqasida yashovchi aholining ekstremal sharoitlarga moslashuvi yoki issiq ob-havo sharoitiga moslashuvi kishilarni turli kasalliklardan saqlaydi.

Bugungi kunda iqlimiy omillar ichida magnit bo'ronlarning salbiy ta'siri ko'payib bormoqda.

Magnit bo'ronlar sodir bo'lganda kishilarda qon quyuvlashadi, tromblar hosil bo'ladi, odam tanasida gaz almashinuvi buziladi, gipertoniklar o'rtasida insult, infarkt, gipertonik krizislar xavfi ortadi. Magnit bo'ronlari paytida quyosh atmosfera havosiga kata miqdorda proton va elektronlarni tashlaydi.

Magnit bo'ronlarning salbiy ta'siri ko'pincha kuz oylarida to'g'ri keladi. Bu paytda organizmni stress holatga chidamliligi kamayar ekan. Bu esa kishilar organizmida melanin moddasining yetishmovchiligi bilan bog'liqdir.


Magnit bo'ronlarining kishilar salomatligiga bo'lgan salbiy ta'siri: yurak qon-tomir kasalliklari, nafas olish organlari, markaziy asab tizimi kabi muhim kasalliklar bilan birga erta tug'ish, taksikoz, ko'z kasalliklarini rivojlanishi xavfli o'sma kasalliklarining rivojlanishi ro'y berishi mumkin. Shunga ko'ra magnit bo'ronlari paytida quyidagi tavsiyalar beriladi.

1. Jismoniy yuklamani kamaytirish.

2. Dori-darmon qabul qilishni uning me'yorlariga amal qilish:
3. Profilaktik choralarni qo'llash, tabiiy giyohlardan foydalanish:
4. Trombosit xavfini oldini olish uchun dizageneren (qon suyultiruvchi) moddalardan foydalanish:
5. Antioksidant preparatlaridan foydalanish.

Tabiiy muhitni kishilar salomatligiga ta'siri tabiiy-iqlimiy komponentlar va jarayonlar bilan belgilanadi. (1-jadval).

(1-jadval). Kishilar salomatligiga ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillar.



(Jadval muallif tomonidan tuzilgan).

Jadvalga keltirilgan barcha omillarni kishilar salomatligiga ahamiyati bor. Har bir omilni optimal bo'lishi esa juda murakkabdir ya'ni optimal yorug'lik harorat namlik sanitar gigienik talablarga to'liq javob beruvchi tuproq qulay relef shakllari yoki magnit bo'ronlarisiz kunlar bo'lmaydi. Shunga ko'ra iqlimiy omillarni gigienik jihatdan 3 tipga bo'lish qabul qilingan.

1. Optimal (qulay) iqlim ya'ni mo'tadil harorat, bosim, namlik, kuchsiz shamol va yetarli yorug'lik.

2. Nisbatan qulay ya'ni iqlimning tez o'zgarib turishi haroratning keskin holati yog'inlar va shamolning tez-tez bo'lib turishi.

3. Noqulay beqaror ya'ni haroratning doimiy pastligi yoki yuqoriligi atmosfera bosimi va namlikning yuqoriligi anomal holatlarning tez-tez bo'lib turishi.

Bugungi kunda insonlar barcha iqlimiy sharoitlarda yashaydi va bunday holatlarga adaptatsiya shakllanadi. Lekin aksariyat kasalliklarni kelib chiqishida iqlim o'zgarishlarining ahamiyati kattadir. BMT ning iqlimni o'rganish komissiyasining

ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'yicha 2010-2019 yillarda 23,1 million kishi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq migratsiyaga majbur bo'lgan. Shuning bilan birga dunyoda 2030-2050 yillardagi iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan oziq-ovqatni yetishmasligi maleriya, diareya, yurak qon tomir kasalliklari hamda haroratning ko'tarilishi natijasida aholi o'rtasidagi o'lim holatlari 250 000 kishiga yetishi mumkin. (Voz, 2021)

Tabiiy muhitning o'zgarib borishi va ayniqsa iqlimni isishi jarayonidagi anomal salbiy hodisalar bizning respublikamizda ham kuzatilmoqda.

Jumladan yoz oylardagi haroratning keskin ortishi qish faslidagi anomal sovuqlar aholi o'rtasida yurak qon tomir, nafas yo'llari, allergik kasalliklarni ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Jumladan Farg'ona viloyatida ham asab tizimi, yurak qon-tomir, nafas a'zolari kasalliklarining ortish tendensiyasi kuzatilib 2022 yilda aholi o'rtasidagi o'lim ko'rsatgichlarida yurak qon-tomir kasalliklari 55% ni nafas olish a'zolari kasalliklari 9,6% xavfli o'simtalar kasalliklari 8,0 %ni tashkil etgan. Shuning bilan birga aholining ayniqsa keksa qatlamlarida meteorologik ya'ni havo harorati va bosimni o'zgarishi magnit bo'ronlari kabi salbiy holatlarga moyillik ya'ni fiziologik qarshilik funksiyasining adabtiv kamayib borishi kuzatilmoqda. Bunday tadqiqotlar oldingi ishlarimizda ham ko'rsatib o'tilgan.

Xulosa. Bunday salbiy holatlarni oldini olish, aholining kasallanish darajasini kamaytirish uchun kishilarda adaptatsiya imkoniyatlarini ortirish, jismoniy faollashtirish, noto'g'ri ovqatlanish rejimiga yo'l qo'ymaslik, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy savodxonligini ortirish bilan birga reprodaktiv salomatligini tiklashda rekrasiya – turistik infratuzilmalarni profilaktik sanatoriya shifoxonalarni rivojlantirish talab etiladi. Bundan tashqari iqlim o'zgarishi bo'yicha davlatlarda ekspertlar (MGEIK) ning xulosasiga ko'ra profilaktik tadbirlarni o'rta va qisqa muddatli emas uzoq muddatlarga mo'ljallangan va aniq samara beruvchi loyihalarni amalga oshirishga qaratilishi zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гумбольдт.А. Картины природы. М Географиздат, 1959
2. Берг.Л.С Климат и жизнь. Госиздат, М 1922
3. “Изменение климата и здоровье” Информационный бюллетень всемирного организация здравоохранения (ВОЗ) 2021 г
4. <https://www2.jpl.nasa.gov/srtm/>
5. www.wikipediya.uz
6. www.geografiya.uz
7. www.GeoOlam.uz